



INTERFERENCE AND THE EXTRALINGUISTIC DETERMINANTS IN ITS DEVELOPMENT

Istoda Rasulova

O'zbek tilshunosligi dotsenti

Samarqand davlat universiteti

e-mail: istoda.87@gmail.com

Samarqand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: interference, extralinguistic factors, lexical layer, loanwords, compound verbs, Persian-Tajik lexicon, Arabic borrowings, bilingualism, Sadriddin Ayni, linguoculture.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the role of extralinguistic factors in the formation and development of interference in language evolution. It scientifically explains how socio-political, historical, cultural, and educational factors strongly influence the process of change and enrichment in the lexical layer. The dynamics of language development are demonstrated using examples of new terms that emerged in the Uzbek language after independence and lexical units that have fallen out of use from the historical layer. The article also discusses the incorporation of loanwords into the language through colloquial and literary forms, as well as the consolidation of lexical interference in everyday speech. Additionally, the formation of compound verbs in the Samarkand Tajik dialect and the presence of Persian-Tajik and Arabic lexical units in the works of Sadriddin Ayni are analyzed separately. According to the research findings, words borrowed from the Persian-Tajik language make up a larger share of the Uzbek vocabulary compared to Arabic loanwords, and in bilingual environments, a bilingual individual can effectively use the possibilities of both languages without interference.

INTERFERENTSIYA VA UNING RIVOJIDAGI EKSTRALINGVISTIK DETERMINANTLAR

Istoda Rasulova

O'zbek tilshunosligi dotsenti

Samarqand davlat universiteti
e-mail: istoda.87@gmail.com
Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: interferensiya, ekstralingvistik omillar, leksik qatlam, o'zlashma so'zlar, qo'shma fe'llar, fors-tojik leksikasi, arabcha o'zlashmalar, ikki tillilik, Sadriddin Ayniy, lingvomadaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada til taraqqiyotida interferensiyaning shakllanishi va rivojida ekstralingvistik omillarning o'rni tahlil qilinadi. Leksik qatlamning o'zgarishi va boyishi jarayoniga ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, madaniy hamda ma'rifiy omillar kuchli ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritilgan. O'zbek tilida mustaqillikdan so'ng yuzaga kelgan yangi atamalar va tarixiy qatlamdan chiqib ketgan birliklar misolida til taraqqiyotining dinamikasi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarning so'zlashuv va kitobiy til orqali kirib kelishi, leksik interferensiyaning kundalik nutqda mustahkamlanishi haqida so'z yuritiladi. Maqolada Samarqand tojik shevasi misolida qo'shma fe'llarning shakllanishidagi interferensiya, shuningdek, fors-tojik va arab tilidan kirib kelgan leksik birliklarning Sadriddin Ayniy asarlarida namoyon bo'lishi alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tili lug'at tarkibida fors-tojik tilidan kirib kelgan so'zlar arab tilidan o'zlashgan birliklarga nisbatan ko'proq ulushni tashkil etishi, ikki tillilik sharoitida bilingv shaxs interferensiyasiz holda har ikkala til imkoniyatidan samarali foydalana olishi ilmiy jihatdan asoslangan.

ИНТЕРФЕРЕНЦИЯ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ

Истода Расулова

Доцент узбекского языкознания
Самаркандский государственный университет
e-mail: istoda.87@gmail.com
Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интерференция, экстралингвистические факторы, лексический слой, заимствованные слова, сложные глаголы, персидско-таджикская лексика, арабские заимствования, двуязычие, Садриддин Айни, лингвокультура.

Аннотация: В данной статье анализируется роль экстралингвистических факторов в формировании и развитии интерференции в языковом развитии. На научной основе раскрывается сильное влияние социально-политических, исторических, культурных и просветительских факторов на процесс изменения и обогащения лексического

слова. На примере новых терминов, появившихся в узбекском языке после обретения независимости, и единиц, вышедших из употребления в историческом слое, показывается динамика развития языка. Также рассматривается проникновение заимствованных слов в язык через разговорную и книжную формы, а также закрепление лексической интерференции в повседневной речи. Отдельно анализируются интерференционные процессы в формировании сложных глаголов в самаркандском таджикском диалекте, а также проявление персидско-таджикских и арабских лексических единиц в произведениях Садриддина Айни. По результатам исследования научно обосновано, что в словарном составе узбекского языка доля слов, заимствованных из персидско-таджикского языка, выше, чем арабских заимствований, и что в условиях двуязычия билингв способен эффективно использовать возможности обоих языков без интерференции.

Har bir xalq tilining lugʻaviy tarkibida boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar muayyan oʻrin tutadi. Chunki jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida turli xalqlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarda boʻladi va turli ekstralingvistik omillar taʼsirida lugʻat boyib boradi. Til esa jamiyatning ajralmas hamrohi sifatida boshqa tillar taʼsirida rivojlanib, yangi soʻzlar bilan boyiydi. Dunyo miqyosida boshqa tillar taʼsirdan xoli, mutlaqo “toza” holda mavjud boʻlgan til yoʻq. G. Shuxardtning “Tillar aralashuvi haqida” asarida taʼkidlanishicha, biror-bir til oʻzga tillar unsurlarini qabul qilmasdan yashamaydi[4.175]. Demak, tillarning oʻzaro aloqasi ularning taraqqiyoti uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tilning leksik qatlamidagi oʻzgarishlar va boyish jarayoni ichki hamda tashqi omillar taʼsirida kechadi. Leksika — tilning eng avvalo yangiliklarni qabul qiluvchi va turli taʼsirlarni tez aks ettiruvchi sathidir. Tilning leksik tizimiga bevosita taʼsir koʻrsatib, unda rang-barang oʻzgarishlar yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar jumlasiga quyidagilar kiradi: tarixiy voqealar, ijtimoiy tuzum shakllari, millatlar va xalqlar oʻrtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda maʼrifiy aloqalar, texnika taraqqiyoti, ilm-fan yutuqlari va ishlab chiqarish jarayonlari, ijtimoiy tafakkur rivoji, til va yozuvga oid qonunlar hamda farmonlar va boshqalar.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy va maʼnaviy hayotida ham jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi: bozor

iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlandi, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi o'zbek tili leksikasiga ham ta'sir o'tkazdi: sobiq ittifoqdagi davlat tuzumiga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykom, obkom, sovxoz, oblast kabi so'zlar) iste'moldan chiqib, o'zbek tili lug'at boyligining tarixiy qatlamiga o'tib qoldi, ularning o'rnida hozirgi mustaqil O'zbekistondagi ijtimoiy hayot taqozo qilgan yangi so'z va atamalar (modul, hemis, litsenziya, reyting, test, marketing, minimarket, investitsiya, biznes kabilar) paydo bo'ldi, hokim, hokimiyat, viloyat, tuman kabi leksemalarning mazmun-mundarijasida hozirgi tuzumga xos yangi ma'no qirralari yuzaga keldi, natijada bunday so'zlar eski qatlamdan zamonaviy qatlamga o'tib qoldi [2.7].

O'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlansa, o'zlashma so'z va shakllar turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablar bilan kirib kelganini ko'rish mumkin. O'zbek tili lug'atidagi bunday so'zlar ikki asosiy yo'l bilan lug'at tarkibida mustahkam o'rin egallagan: so'zlashuv tili va kitobiy til orqali [1.18]. So'zlashuv tilidan o'zlashgan qatlamda aynan interferensiya ta'sirini yaqqol kuzatish mumkin. Chunki nutq jarayonida so'zlovchi ba'zan muqobil so'z topa olmaydi yoki suhbatdoshga tushunarli bo'lishi uchun unga tanish bo'lgan boshqa til leksikasidan foydalanadi. Shunday ekstralingvistik omillar natijasida fan va texnika taraqqiyoti tufayli bugungi kunda ham ko'plab so'zlar tezkorlik bilan lug'atimizga kirib kelmoqda. O'z tilida muqobili topilmagani bois ularni qo'llash odatiy holga aylanib, leksik interferensiya so'zlashuv nutqida tobora mustahkamlanmoqda. Vaqt o'tgan sayin esa bunday so'zlar ommalashib, nutqimizda barqarorlashmoqda. Masalan: komentariya, kontent, insayt, fleshka, disk, printer, instagram, facebook va boshqalar.

Tojik tilida zan (urmoq) fe'li qo'shma fe'l hosil qilishda faol qo'llanadigan birlik bo'lib, gap zan, halloz zan, davru-davron zan kabi birikmalarda (xususan, Samarqand tojik shevasi asosida) uchraydi. O'zbek tilida esa qo'shma fe'llar ko'proq urmoq fe'li bilan hosil qilinadi: oh urmoq, javlon urmoq, qayg'urmoq kabi yarim turg'un shakllarda. Umuman, tilimizda qo'shma fe'l hosil qilish uchun asosan qilmoq, etmoq, bo'lmoq, aylamoq kabi yordamchi fe'llardan foydalaniladi, ammo ular orasida "gapirmoq" ma'nosini ifodalovchi shakl mavjud emas. Shundan ko'rinadiki, interferensiya hatto so'z yasalihi sathiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, o'zbek tilida fors-tojik tiliga oid be-, ba-, no-, dar-, ser- kabi old qo'shimchalar ishtirokida yangi so'zlarning paydo bo'lishi ham interferensiyaning so'z yasalihi jarayoniga ta'sirini ko'rsatadi.

Mazkur masalaga lingvomadaniy nuqtayi nazardan yondashsak, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan jadid adabiyoti vakili, yangi tojik adabiyotining asoschisi Sadridin Ayniyning qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Adib ikki tillilik – o'zbek va tojik tillarining

yaqin aloqasini o'z shaxsiy ijodiy faoliyati orqali yaqqol namoyon qilgan. U ikki tilni ham mukammal bilgan va asarlarini o'zbek hamda tojik tillarida yozgan [6.91].

Sadriddin Ayniy quyidagi so'zlari bilan ikki xalqning yaqinligini ta'kidlaydi:

«Sizlarga yaxshi ma'lumki, biz o'zbeklar bilan aka-ukamiz. Bizlar bir daryodan suv ichamiz, bir xil non yeymiz, kiyinishlarimiz ham o'xshash. Xalqlarimizning urf-odat va an'analari ham bir-biriga yaqin. Biz hayotning zarbalarini ham bir xil boshimizdan o'tkazdik, mustaqillik uchun ham birgalikda kurashdik...»[3.7]

Adib "Qullar", "Esdaliklar", "Eski maktab", "Sudxo'ring o'limi", "Dohunda", "Odina" kabi asarlarini o'zbek tilida yozibgina qolmay, ularni tojik tiliga ham shaxsan o'zi tarjima qilgan. Uning ijodida arabiy, forsiy, turkiy va ruscha leksik qatlamdan ustalik bilan foydalanilganini ko'ramiz. Ayniy qahramonlari nutqida ijtimoiy hayot, mentalitet va yashash tarzining umumiy jihatlari til vositasida aks etadi.

Xususan, "Odina" asarini tahlil qilar ekanmiz, yozuvchining har ikki tilni mukammal bilganligi bois ularning boy leksik imkoniyatlarini ochishga intilganini kuzatish mumkin. Biz esa ushbu asarlar asosida o'zbek tiliga fors-tojik va arab tillarining ta'sirini tahlil qilishga urinib ko'rdik.

Fors-tojik tiliga oid umumiy leksika

Kishilarga nisbatan ishlatiladigan so'zlar: yetim, kambag'al, nabira, cho'pon, xo'jayin, sudxor, do'st, dushman, farzand, mardikor...

Tabiat bilan bog'liq so'zlar: bahor, daryo, xarsang, gul, bulbul, chang, oftob...

O'lchov birligini ifodalovchi so'zlar: gaz, toy, pul, hafta...

Narsa va shaxslarning belgisini bildirgan so'zlar: pokiza, umidvor, arzon, hushyor, bemor, pushaymon, ko'rnamak, past, sho'rxok, badbo'y, qahramon, sodda, baland...

Narsa otlari: devor, dumba, non, xirmon, pista, surma, charx, dastgoh, ustun, chiroq, paxa, ohak, xirmon, pora...

O'rin-joy otlari: maydon, zinapoya, zindon, xona, go'r...

Faoliyat-jarayon otlari: hangoma, daromad, faryod, farmon, muzd...

Yordamchi so'zlar: agar, goh..., goh, dam..., dam, lekin, shoyad, xoh..., xoh...

Arab tiliga oid umumiy leksika

Kishilarga nisbatan ishlatiladigan so'zlar: xola, qozi, mullozim, mufti, arbob, imom, amir, hokim, jallod, tarjimon, mudir, sag'ir, asir, oshiq...

Tabiat bilan bog'liq so'zlar: hayvon, havo...

Uzunlik, vaqt, o'lchov, miqdor bilan bog'liq so'zlar: hajm, hisob, fursat, muddat, hozir, gaz, toy...

Narsa va shaxslarning belgisini bildirgan soʻzlar: haq, musaffo, aks, mayib, foydali, hasana, harom, majburiy, tabiiy, abadiy, mushkul, maxsus...

Narsa va buyum otlari: imorat, soat, mol...

Oʻrin-joy otlari: ombor, Vatan, istirohat (bogʻi), dunyo, olam, sharq...

Faoliyat-jarayon otlari: meros, xizmat, qarz, tarbiya, hirs, voqea, muhokama, odat, vasiyat, omonat, ruxsat, taloq, odob, nasihat, taqvo, sir, hodisa, safar, xabar, vazifa, savol, javob, musibat, aza, hikoya, hiyla, hujum, qiyomat, arz, madaniyat, xayol, tarbiya, aql, ishq, visol, hijron, muhokama, nomus, harakat, tomosha, quvvat...

Asarning 7 qismi tahlil qilindi va Sadridin Ayniy oʻzbek tilida yozgan “Odina” asarida fors-tojikcha soʻzlardan 74 ta (takrorlar hisobga olinmadi), arabcha leksikadan 89 ta ishlatilganligi (takrorlar hisobga olinmadi) maʼlum boʻldi.

Vaholanki, oʻzbek tilining lugʻat tarkibida fors-tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardan koʻproq foizni tashkil qiladi. Bu esa shundan dalolat beradiki, agar bilingv har ikkala tilni mukammal bilsa, unda u ikki tilda ham interferensiyaga yoʻl qoʻymasdan, har bir tilning lugʻat boyligidan unumli foydalanib, oʻz fikrini toʻliq va ravon ifoda eta oladi. Bu holat Sadridin Ayniy tomonidan tarjima qilingan “Odina” asari tahlilida ham oʻz tasdigʻini topdi [5.162].

Xulosa. Til taraqqiyoti jarayonida interferensiyaning shakllanishi va rivojida ekstralingvistik omillar muhim oʻrin tutadi. Tarixiy jarayonlar, siyosiy tizimdagi oʻzgarishlar, iqtisodiy aloqalar, madaniy-maʼrifiy omillar, ilm-fan va texnika taraqqiyoti leksik qatlamning boyib borishida bevosita taʼsirchan omillardan hisoblanadi. Mustaqillikdan soʻng oʻzbek tilida yuzaga kelgan yangi soʻzlar va atamalar, tarixiy qatlamdan chiqqan birliklarning oʻrni tilning dinamik rivojlanishini namoyon etadi. Soʻzlashuv va kitobiy til orqali kirib kelgan oʻzlashma birliklar kundalik nutqda mustahkamlanib, leksik interferensiya jarayonini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, tojik tilidagi zan feʼlining qoʻshma feʼllar hosil qilishdagi faoliyati oʻzbek tilidagi urmoq feʼli bilan qiyoslanib, interferensiyaning soʻz yasalishi sathida ham mavjudligi koʻrsatildi. Fors-tojik va arab tillaridan kirib kelgan leksik birliklarning Sadridin Ayniy asarlaridagi qoʻllanishi ikki tilning oʻzaro taʼsirini va bilingv muhitning til taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritadi. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, fors-tojik tili orqali kirib kelgan birliklar arabcha oʻzlashmalarga nisbatan koʻproq ulushga ega. Demak, interferensiya nafaqat lugʻaviy boylikning tarkibiy qismi sifatida, balki madaniy va ijtimoiy aloqalarning til taraqqiyotidagi bevosita koʻzgusi sifatida ham namoyon boʻladi.

Foydalingan adabiyotlar roʻyhati:

1. Aliyev A., Sodiqov Q. Oʻzbek adabiy tili tarixidan. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1994. – 265 B.

2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.–Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
3. Калонтаров Я.И. Таджикские пословицы и поговорки в сравнении с узбекскими. – Душанбе: Дониш, 1969. – 434 с.
4. Шухардт Г. Вещи и слова // Избранные статьи по языкознанию. – Москва, 1950. – С. 175.
5. Rasulova I.A., Akramova U.S. Language contacts, interference and its negative influence on language learning //ACADEMICA An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol.11, Issue 8, August 2021. (Impact Factor: SJIF 2021=7.49. –P.160-164.)
6. Shimada Shizuo, Tosheva Sharifa (eds.). Şadr al Din Ayni. Bukhara inqilabining tarixi. Central Eurasian Research Series. No 4. The University of Tokyo, Dept. of Islamic Area Studies, 2009. PP. 9-287; Давронова М.З.Садриддин Айний асарларида фразеологик бирикмалар бадий тасвирнинг муҳим воситаси // Хорижий филология. – № 3, 2019. – Б. 89-94.